SUV XO'JALIGI SOHASIDA DASTURIY BUDJETLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	769
Dilshod Pulatov, Dildora Mirzaeva	
МЕТОДЫ СБОРА И АНАЛИЗА ДАННЫХ ДЛЯ ОЦЕНКИ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ЦИФРОВЫХ ИНВЕСТИЦИЙ.....	776
Каракулов Фарход Зайпудинович	



НЕФОРМАЛЬНАЯ ЗАНЯТОСТЬ И ТЕНЕВАЯ СТОРОНА ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: АНАЛИЗ СТРУКТУРНЫХ ВЫЗОВОВ И ГОСУДАРСТВЕННЫХ МЕР ПО ЛЕГАЛИЗАЦИИ	782
Салахутдинова Юлдуз Голибовна	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	787
Xalikov Akmal Xolboyevich	
TIJORAT BANKLARDA MOLIYAVIY XIZMATLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI	793
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
RAQOBATBARDOSH MUHITDA INNOVATSION MENEDJMENTNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI	799
Siddikov Askar Axrorovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI BAHOLASHNING MEZON VA USULLARI	803
Isakova Naima Ikromjonovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	809
Abdullayeva Iroda Shuxrat qizi	
MULTIMODAL TRANSPORT OQIMLARI SHAROITIDA LOGISTIKA XABLAR JOYLASHUVINI TANLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	813
Umirzaqov Davlatjon Dolimjon o'g'li, Axmedova Muslima Djalolovna	
SUG'URTA ZAXIRALARINI MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTDA AKS ETTIRISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH	818
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTNI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	826
Nazarov Nazirjon Narzilloevich	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH VA ULARNI TAHLIL QILISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	830
Norqulova Qutlug'nigor Oloviddinovna	
XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOJ-TARIF SIYOSATINI METODOLOGIK TAKOMILLASHTIRISH MODELLARI	837
Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li	
MAMLAKATIMIZDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI (XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA)	844
Bekmetov Xursandbek Ilxamovich	
SOTISH KANALLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH	850
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
MINTAQ IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURIYATI	857
Achilova Firusa Kurbanovna	
TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH VA INVESTITSION KREDITLASH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH TAHLILI	862
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA BAHOLASH MEZONLARI	867
Ismailova Ma'mura Eldorovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA MANBALARI	874
Rustamova Dilsabaxon Djurayevna, Baratov Maxsudali Nazaraliyevich	
KORXONA FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	881
Xashimova Dilyora Paxritdinovna	
TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI (DXSH) LOYIHALARINI BOSHQARISHDA ESG VA BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI (UNSDG) KONSEPSIYALARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI	888
Masharipov Ravshan Rajabboyevich	



IQTISODIY, MOLIYAVIY, INVESTITSIYA VA SOLIQ SALOHİYATINING O'ZARO BOG'LIQLIGINING NAZARIY XUSUSIYATLARI.....	893
Jurayev Xusan Atamuratovich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RISKLAR BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	900
Kadirov Abdumalik Matkarimovich, Abduqodirova Shahzoda Ilhomidin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINI IQTISODIY-EKOLOGIK JIHATDAN RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	904
Koliyova Shoxista Qahramon qizi, Barnoqulova Marjona Otabek qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR PORTFELLARINI RISK-DAROMAD DILEMMASI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH (G. MARKOVIS VA J. TOBINNING PORTFEL NAZARIYASI ASOSIDA)	909
Kurbonov Xayrilla	
MAMLAKATIMIZNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	915
Mirzayev Rustam Ro'ziyevich	
РЫНОЧНЫЙ СПРОС И РАВНОВЕСИЕ	921
Камилова Наргиза Абдукажхоровна, Ашуров Сардоржон Зафаржонович	
XORIJY DAVLATLARDA AUDITORLIK FAOLIYATINING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYASI.....	925
Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	
MARKETING-INTERNET XIZMATLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA SAVDO KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	929
Ismoilov Lazizbek Rasuljon o'g'li	
KORXONADA INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMLARINING MAVJUD MODELLARINING RETROSPEKTIVASI.....	934
Toxirova Gullola Mirkamolovna	
SANOATNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA TARMOQ KORXONALARI FAOLIYATIGA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING ROLI	940
Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li	
TIBBIY XIZMATLARNI MOLIYALASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	946
Isroilov Bohodir Ibragimovich, Muhammadiev Ramz Zoirjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ROLI	952
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ.....	957
Журахонов Шержахон Зафаржонович	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMI, RIVOJLANISHINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI	962
Raxmonov Azizjon Sadullayevich	
SOLIQQA TORTILADIGAN KO'CHMAS MULKLARNI BAHOLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	970
Musalimov Shuxrat Isamuxamedovich	



SOLIQQA TORTILADIGAN KO'CHMAS MULKLARNI BAHOLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Musalimov Shuxrat Isamuxamedovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda mamlakatimizda ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortish, oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirish, garovga qo'yish, jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish hamda boshqa holatlar uchun aniqlanadigan qiymatlarning o'zaro mutanosibligini ta'minlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, ko'chmas mulk bozoriga oid ishonchli, to'liq va muntazam yangilanib boradigan axborot bazasini shakllantirish, soliqqa tortishda adolatlilik tamoyilini yanada keng joriy etish, ko'chmas mulk obyektlarining bozor narxiga yaqin qiymatini aniqlashning zamonaviy usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mulk, ko'chmas mulk, kadastr qiymati, bozor narxlari, oldi-sotdi, garov, mol-mulk solig'i, soliq tizimi, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, soliq imtiyozlari, baholash.

Abstract. This study examines the issues of ensuring proportionality in the valuation of real estate objects determined for taxation purposes, sale and purchase transactions, collateralization, expropriation for public needs, and other related cases. Particular attention is paid to the formation of a reliable, comprehensive, and regularly updated information database on the real estate market, the further implementation of the principle of fairness in taxation, as well as the development of modern methods and mechanisms for determining real estate values that are close to market prices. Based on the research findings, relevant proposals and practical recommendations are formulated.

Key words: property, real estate, cadastral value, market prices, sale and purchase, collateral, property tax, tax system, legal entity, individual, tax incentives, valuation.

Аннотация. В данном исследовании рассматриваются вопросы обеспечения соразмерности стоимости объектов недвижимости, определяемой для целей налогообложения, осуществления операций купли-продажи, передачи в залог, изъятия для государственных и общественных нужд, а также иных случаев. Особое внимание уделено формированию надежной, полной и регулярно обновляемой информационной базы о рынке недвижимости, дальнейшему внедрению принципа справедливости в налогообложении, а также разработке современных методов и механизмов определения стоимости объектов недвижимости, максимально приближенной к их рыночной цене. По результатам исследования сформулированы соответствующие предложения и практические рекомендации.

Ключевые слова: собственность, недвижимость, кадастровая стоимость, рыночные цены, купля-продажа, залог, налог на имущество, налоговая система, юридическое лицо, физическое лицо, налоговые льготы, оценка.

KIRISH

Jahon amaliyotidan ma'lumki, soliqqa tortish mexanizmlarining aniqligi va adolatliliigi bozorda mulk qiymatining real aks ettirilishini ta'minlash, shuningdek, soliq to'lovchilarning majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

O'z navbatida, ko'chmas mulk bozorida shaffoflikni oshirish, soliqqa tortish jarayonidagi kamchiliklarni kamaytirish hamda davlatning makroiqtisodiy barqarorlikka erishishida mazkur sohada zamonaviy metodologiyalarni qo'llash muhim omil hisoblanadi. Shu bois, ushbu metodologiyalarni xalqaro standartlar va raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish global iqtisodiy barqarorlikka erishishda ham ijobiy samara beradi.

Respublikada mavjud 8 milliondan ortiq turar va noturar joylar hamda 7 millionga yaqin yer uchastkalarining iqtisodiy aktiv sifatidagi qiymatini aniqlash, ko'chmas mulk obyektlarining soliqqa tortish, oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirish, garovga qo'yish, jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish va boshqa holatlar uchun belgilangan qiymatlarining o'zaro mutanosibligini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir. Shuningdek, ko'chmas mulk bozoriga oid ishonchli, to'liq va muntazam yangilanib boradigan axborot bazasini shakllantirish, soliqqa tortishda



adolatlilik tamoyilini yanada keng joriy etish hamda ko'chmas mulk obyektlarining bozor narxiga yaqin qiymatini aniqlashning zamonaviy usullari va mexanizmlarini joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq nazariyasida U. Petti, J.B. Sey, D. Rikardo va J. Mill kabi klassik iqtisodchilar iqtisodiyot o'zini o'zi samarali boshqarish qobiliyatiga ega, deb hisoblashgan. Ularning nazariy qarashlarida talab va taklif muvozanati iqtisodiy jarayonlarning asosiy harakatlantiruvchi omili sifatida e'tirof etilib, soliqlar asosan davlat byudjetining daromad manbai sifatida baholangan [1].

Rus iqtisodchi olimi, professor A.V. Bryzgalin fikricha, mahalliy soliqlarni belgilashda ularni hisoblash va undirish metodologiyasi umumiy tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozimligi ta'kidlanadi [2].

Ko'chmas mulkni baholash jarayoni natijasida tayyorlangan baholovchi mutaxassisning hisoboti yuridik kuchga ega bo'lib, sud jarayonlarida, soliq bazasini aniqlashda soliq organlariga taqdim etish hamda qarzdorlik bilan bog'liq nizolarni hal etishda foydalanilishi mumkin. Shu sababli, ko'chmas mulkni baholash jarayoniga mas'uliyat bilan yondashish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki baholash natijalari buyurtmachi manfaatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi [3].

Mahalliy iqtisodchi olimlar N. To'ychiev va A. Mirxoshimovlarning ta'kidlashicha, qiymatni aniqlash jarayoni nafaqat ko'chmas mulk bozoridagi holatni, balki baholanayotgan mulk qiymatiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ham hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Baholashga klassik yondashuvlar uch asosiy turga ajratiladi:

- xarajatli yondashuv;
- sotuvlarni qiyosiy tahlil qilish usuli;
- daromadli yondashuv.

Ko'chmas mulkni baholashda ushbu uch yondashuvni qo'llash natijasida ayni bir obyekt uchun uch xil qiymat shakllanishi mumkin. Yakuniy baho esa mazkur usullar asosida olingan natijalarni kompleks tahlil qilish orqali aniqlanadi [4].

Iqtisodchi olim D. Fridman xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan ko'chmas mulkning bozor qiymatini aniqlash usullari sifatida xarajat, daromad va taqqoslash yondashuvlarini e'tirof etadi. Xususan, xarajat usulida yer uchastkasini sotib olish qiymati aniqlanib, binoning eskirish darajasi hisobga olinadi va ushbu usul birlamchi bozor bahosini aniqlashda keng qo'llaniladi. Daromad usuli ko'chmas mulkning ma'lum bir davr mobaynida keltirishi mumkin bo'lgan daromad hajmini aniqlashga asoslanadi va asosan tijorat maqsadlarida foydalaniladigan mulklarga nisbatan qo'llanilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Taqqoslash usulida esa baholanayotgan obyekt qiymati bozorda sotilayotgan o'xshash obyektlar narxlariga solishtiriladi va ushbu yondashuvdan, asosan, yashash uchun mo'ljallangan ko'chmas mulk obyektlarini oldi-sotdi qilish jarayonida foydalanish tavsiya etiladi [5].

Professor M.A. Fedotovning ta'kidlashicha, ko'chmas mulkning bozor qiymatini aniqlashda uning eng maqbul bahosi belgilanadi. Baholovchi tomonidan bozor qiymati, jumladan, mol-mulk davlat daromadiga o'tkazilganda, ko'chmas mulk garovga qo'yilganda yoki kredit ta'minoti sifatida foydalanilganda, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan aksiya paketlari sotib olinganida, ustav kapitaliga ko'chmas mulk kiritilganida, bankrotlik jarayonida qarzdor mulkning qiymatini aniqlashda hamda ko'chmas mulkni soliqqa tortishda belgilanadi [6].

Ko'chmas mulkka soliq solishni takomillashtirish masalalari, eng avvalo, uning adolatliligi va qonuniyligini ta'minlash nuqtayi nazaridan doimiy ravishda jamoatchilik muhokamalari va ilmiy munozaralar markazida bo'lib kelgan. M. Kiazoluning fikricha, iqtisodchilar va mutaxassislar mol-mulk solig'ini barqaror daromad keltiruvchi hamda soliqdan bo'yin tovlanishi nisbatan murakkab bo'lgan soliq turi sifatida e'tirof etadilar [7].

TAHLIL VA NATIJALAR

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning balansida mavjud bo'lgan barcha mulk obyektlari bo'yicha soliq majburiyatining belgilanishi ularni ortiqcha bino, inshootlar, mashina va uskunalardan samarali foydalanishga yoki ularni realizatsiya qilishga undaydi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorining shakllanishiga, mahsulot tannarxining pasayishiga hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, mol-mulk solig'i daromadlar va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni yumshatish hamda iqtisodiy muvozanatni ta'minlashning muhim fiskal instrumentlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ulushi hozirgi kunda nisbatan yuqori salmoqqa ega emas.

Biroq, 2020–2024-yillar davomida mol-mulk solig'ini to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar doirasini aniqlash, soliq to'lovchilar hisobini yuritish hamda soliq tushumlarini hisobga olish tizimida muhim institutsional



va tashkiliy o'zgarishlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlar soliqlarni hisoblash va to'lash tartiblarini yanada takomillashtirish, soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish hamda soliq intizomini mustahkamlashga qaratildi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillarda mol-mulk solig'ini to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar soni va hisoblangan soliqlar to'g'risida ma'lumot¹

Tir	Ko'rsatkichlar/yillar	2018	2020	2021	2022	2023	2024
1.	Yuridik shaxslar						
	Soni	6442	58334	58856	64392	77137	78272
	Hisoblangan soliq miqdori	982,9	1003,3	2187,3	3313,7	3535,0	4404,4
2.	Jismoniy shaxslar						
	Soni	5343422	6978872	6978872	7468017	7609969	7764522
	Hisoblangan soliq miqdori	833,2	833,2	1047,9	1149,4	1469,	2459,9

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2018-yilga nisbatan 2020–2024-yillarda mol-mulk solig'ini to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar soni hamda byudjetga hisoblangan soliq tushumlarida barqaror o'sish tendensiyasi shakllangan. Ushbu ijobiy dinamika, avvalo, O'zbekistonda soliq tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar bilan izohlanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF–5468-sonli Farmoni²ga muvofiq soliq tizimida tub institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi. Mazkur hujjat asosida ilgari soddalashtirilgan soliq tizimida faoliyat yuritgan kichik biznes subyektlari uchun mol-mulk, yer va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni umumiy tartibda to'lash mexanizmi joriy etildi. Natijada, soliq ma'murchiligi yanada shaffof, qamrovli va samarali tizimga aylantirildi.

Shu bilan birga, tahlil natijalari soliq to'lovchilar sonining sezilarli darajada kengayishi bilan birga, byudjetga hisoblangan mol-mulk solig'i hajmining nisbatan muvozanatli o'sib borayotganini ko'rsatadi. Masalan, 2020-yilda mol-mulk solig'i to'lovchilari soni 2018-yilga nisbatan 9,1 barobarga oshgan bo'lsa (58 334 : 6 442), hisoblangan mol-mulk solig'i hajmi 102,0 foizga (1 003,3 mlrd so'm : 982,9 mlrd so'm) ko'paygan.

Bir soliq to'lovchiga to'g'ri keladigan o'rtacha soliq yuklamasi tahlili ham muhim natijalarni ko'rsatadi. Xususan, 2018-yilda bir soliq to'lovchiga o'rtacha 152,6 mln so'm to'g'ri kelgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 17,2 mln so'm, 2021-yilda 37,2 mln so'm, 2022-yilda 51,5 mln so'm, 2023-yilda 45,8 mln so'm va 2024-yilda 56,3 mln so'mni tashkil etgan.

Mazkur ko'rsatkichlar soliq bazasining kengayishi va soliq to'lovchilar qamrovining oshishi hisobiga soliq yuklamasining nisbatan muvozanatli taqsimlanayotganini anglatadi. Jumladan, 2024-yilda soliq to'lovchilar soni 2020-yilga nisbatan 134,5 foizga oshgan bo'lsa-da, bir soliq to'lovchiga to'g'ri keladigan soliq summasi bosqichma-bosqich o'sib borgan.

Shu bilan birga, ushbu tahliliy ma'lumotlar mol-mulk solig'i bazasini aniqlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati mavjudligini ko'rsatadi. Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq, soliq bazasi mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati asosida aniqlanib, bu ko'rsatkich mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati va amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi.

Xalqaro tajribada esa mol-mulk solig'ini hisoblashda ko'chmas mulkning bozor qiymatiga yaqinlashgan baholash mexanizmlaridan keng foydalaniladi. Aynan shu yo'nalishda tizimli islohotlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF–43-sonli Farmoni³ qabul qilindi. Ushbu farmonga muvofiq, 2025-yildan boshlab ko'chmas mulk obyektlarini bozor qiymatiga yaqinlashtirilgan holda davriy ommaviy baholash tizimi bosqichma-bosqich joriy etilishi belgilandi.

Mazkur chora-tadbirlar mol-mulk solig'i bazasini aniqlash aniqligini oshirish, soliq adolatligini ta'minlash va mahalliy byudjetlarning barqaror daromad manbalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mol-mulk solig'i tizimida aniqlangan masalalarni kompleks va izchil tarzda hisobga olgan holda hal etish byudjet daromadlarining barqarorligini ta'minlash, soliq

1 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

2 <https://www.lex.uz/uz/docs/-3802378?ONDATE2=11.12.2019&action=compare>

3 <https://lex.uz/uz/docs/-7417774>



tushumlarining o'z vaqtida va belgilangan hajmlarda kelib tushishini kafolatlash hamda aholining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlariga xizmat qiluvchi davlat vazifalarini to'liq amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mazkur yo'nalishdagi institutsional va metodologik yondashuvlarni yanada takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-yanvardagi "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-43-sonli farmonida belgilangan vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash, shuningdek, mol-mulk solig'i bazasini aniqlashda adolat va shaffoflikni kuchaytirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- mol-mulk solig'i bazasini aniqlashda, amaldagi qonunchilikka muvofiq, Toshkent shahrida ommaviy baholashdan o'tkazilgan kvartiralar bo'yicha ommaviy baholash sohasidagi vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining qiymatini soliq bazasi sifatida qo'llash amaliyotini kengaytirish;

- hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va faoliyat amalga oshiriladigan joylarning xususiyatlarini inobatga olgan holda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan soliq stavkalarini belgilashda ommaviy baholashdan o'tkazilgan kvartiralar uchun qo'llanilayotgan yagona stavkalardan moslashuvchan foydalanish mexanizmini joriy etish;

- mol-mulkni baholash sohasida tegishli vazirlik va idoralar tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'liq inventarizatsiyadan o'tkazish, ularni tizimlashtirish hamda yagona elektron axborot platformasini shakllantirish orqali baholash jarayonlarining muvofiqligini ta'minlash;

- mol-mulkni baholashning amaldagi qonunchilik asoslarini xalqaro amaliyotdagi ilg'or yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish, baholash jarayonlarini mulkni baholashning milliy standartlari asosida tashkil etish orqali baholash natijalarining aniqligi va ishonchligini oshirish;

- vakolatli organlar tomonidan shakllantiriladigan ko'chmas mulkning bozor qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarni manfaatdor tomonlarga, jumladan soliq organlariga o'z vaqtida taqdim etish, shuningdek, ushbu ma'lumotlarni ochiq ma'lumotlar shaklida rasmiy internet resurslarida e'lon qilib borish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Yuqorida keltirilgan takliflarning amaliyotga joriy etilishi mol-mulk solig'i bazasini aniqlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, soliq adolatligini ta'minlash hamda mahalliy byudjetlar daromad salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Chernik D. G. Nalogi i nalogooblojenie: uchebnik. – Moskva: MSFER, 2006. – 528 s. URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=19588732>
2. Bryzgalin A. V., Burdakov S. G. Pravovoe regulirovanie poryadka ustanovleniya i vzimaniya mestnykh nalogov i sborov // Finansy. – 1996. – № 1. – S. 30. URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=12945833>
3. Fedotova M. A. Otsenka nedvizhimosti: uchebnik. – Moskva: Finansy i statistika, 2001. URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=24163208>
4. To'ychiev N. J., Mirxoshimov A. M., Plaxtiy K. A. Ko'chmas mulkni baholash asoslari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Adolat, 2000. – 280 b. URL: <https://nrm.uz/contentf?doc=37968>
5. Fridman D. Analiz i otsenka prinosyashchey dokhod nedvizhimosti. – Moskva: Delo, 2005. – 86 s. URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=19874651>
6. Kiazolu M. O. An Assessment of Liberia's Real Property Tax Regime: Implications for Local Government Financing. – 2022. URL: <https://www.researchgate.net/publication/361245987>
7. Bird R. M., Slack E. International Handbook of Land and Property Taxation. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2004. URL: <https://www.elgaronline.com/view/9781843766460.xml>
8. Bahl R., Martinez-Vazquez J. The Property Tax in Developing Countries: Current Practice and Prospects. – Lincoln Institute of Land Policy, 2008. URL: <https://www.lincolnst.edu/publications/working-papers/property-tax-developing-countries>
9. Kelly R. Property Tax Reform in Developing and Transition Countries. – World Bank, 2013. URL: <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/>
10. Youngman J. M. Legal Issues in Property Valuation and Taxation. – Lincoln Institute of Land Policy, 1994. URL: <https://www.lincolnst.edu/publications/books/legal-issues-property-valuation-taxation>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>